



Milliy muloqot xulqini shakllantirishda bolalarga xos oʻyin faoliyatining ahamiyati

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna –

Fargʻona davlat universiteti katta oʻqituvchisi,
filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: md_buzrukova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2780-9087>

Oriboyeva Nodirabegim Shoirjon qizi –

Fargʻona davlat universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy muloqot xulqini shakllantirish jarayonida oʻyin faoliyatining psixologik-pedagogik asoslari ochib beriladi. Milliy qadriyatlarni singdirish, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish, bolalarning nutqiy va muloqot madaniyatini rivojlantirishda oʻyinlarning taʼsiri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Oʻyin faoliyatining mazmuni, turi va metodik qoʻllanilishi milliy muloqot xulqining asosiy komponentlari bilan bogʻlanib oʻrganiladi. Tadqiqot natijalariga koʻra, anʼanaviy va innovatsion oʻyinlar bolalarda oʻzaro hurmat, ijtimoiy hamkorlik, madaniy xulq meʼyorlarini egallashning samarali vositasi ekanligi aniqlanadi.

Kalit soʻzlar: milliy muloqot xulqi, oʻyin faoliyati, muloqot madaniyati, ijtimoiylashuv, pedagogik yondashuv, maktabgacha yosh, milliy tarbiya.

Формирование национального коммуникативного поведения у детей посредством игровой деятельности, характерной для детского возраста

***Аннотация.** В статье раскрываются психолого-педагогические основы игровой деятельности в процессе формирования национального коммуникативного поведения у детей дошкольного возраста. На основе научных источников анализируется влияние игр на усвоение национальных ценностей, формирование социальных компетенций, развитие речевой и коммуникативной культуры детей. Содержание, виды и методическое применение игровой деятельности изучаются во взаимосвязи с основными компонентами национального коммуникативного поведения. По результатам исследования установлено, что традиционные и инновационные игры являются эффективным средством формирования у детей взаимного уважения, социального сотрудничества и норм культурного поведения.*

***Ключевые слова:** национальное коммуникативное поведение, игровая деятельность, культура общения, социализация, педагогический подход, дошкольный возраст, национальное воспитание.*

The importance of play activities characteristic of children in shaping national communicative behavior

***Annotation.** The article reveals the psychological and pedagogical foundations of play activities in the process of forming national communicative behavior in preschool children. Based on scientific sources, the influence of games on the internalization of national values, the development of social competencies, and the improvement of children's speech and communication culture is analyzed. The content, types, and methodological application of play activities are studied in connection with the main components of national communicative behavior. The research findings indicate that traditional and innovative games are effective means for fostering mutual respect, social cooperation, and the acquisition of norms of cultural behavior among children.*

***Keywords:** national communicative behavior, play activity, communication culture, socialization, pedagogical approach, preschool age, national education.*

KIRISH

Muloqot insonning ijtimoiy mohiyatini belgilovchi asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, bola shaxsining shakllanishi ham aynan muloqot jarayonida sodir bo'ladi. Maktabgacha yoshda muloqotning ijtimoiy-axloqiy me'yorlari, odob-axloq talablari, nutqiy etiketi, tengdoshlar va kattalar bilan muomala madaniyati shakllana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy muloqot xulqini shakllantirish ta'lim-tarbiyaning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki muloqot bolalarning ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari, xulq-atvor me'yorlari shakllanishida markaziy omil sanaladi. Muloqot jarayonida bola jamiyat qadriyatlarini o'zlashtiradi, muloqot texnikasi, ijtimoiy munosabatlar madaniyati va o'zini tutish qoidalarini egallaydi. Shuningdek milliy muloqot xulqi shaxsning nafaqat nutqiy, balki ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy-psixologik rivojlanganlik darajasini aks ettiradi. Bu jarayonning tabiiy shakllanishi o'yinsiz, o'yin faoliyatining xilma-xil shakllaridan foydalanmasdan tasavvur etilishi qiyin [3;222-bet].

Bolalar ijtimoiylashuvi jarayonida o'yin faoliyati alohida psixologik va pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Aynan o'yin jarayonida bola jamiyatda amal qiladigan madaniy me'yorlarni, nutqiy andozalarni va milliy muloqot unsurlarini tabiiy tarzda o'zlashtiradi. O'yin faoliyati bolaning shaxsiy tajribasini faollashtirib, unga muloqotning mazmuni, shakli va uslublarini amaliy mashq qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, o'yin – milliy nutq madaniyatini egallashga xizmat qiluvchi tabiiy ijtimoiy-lingvistik muhitdir. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining yetakchi faoliyati bo'lgani bois, aynan o'yin jarayonida bolalarning milliy muloqot ko'nikmalari eng faol shakllanadi. Psixologlar (Vigotskiy, Leontyev, Elkonin) ta'kidlaganidek, o'yin – bola rivojlanishining yetakchi faoliyat turi bo'lib, unda shaxsiy sifatlar, xulq-atvor me'yorlari, nutq ko'nikmalari, ijtimoiy muomala amaliyoti shakllanadi [4; 45-bet].

O'zbek pedagogik maktabida ham milliy o'yinlar tarbiya vositasi sifatida o'rganilib, ayniqsa bola nutqi, muloqot odobi, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta'siri alohida e'tirof etiladi [3;63-bet].

L.S.Vigotskiy fikricha, o'yin bolani “yaqin rivojlanish zonasiga” olib kiradi, unda bola kattalar me'yorlarini ichki nutq va tashqi harakatlar orqali o'zlashtiradi [2; 56-b.].

Milliy o'yinlar, ijodiy rolli o'yinlar, harakatli o'yinlar, muloqotga yo'naltirilgan didaktik o'yinlar bolalarda axloqiy normalar, hurmat, hamkorlik, navbat kutish, o'z fikrini madaniyatli ifodalash, tinglay olish kabi madaniy kompetensiyalarni shakllantiradi. O'yinlar orqali bola: milliy odob me'yorlarini, nutqiy etikani, ijtimoiy rollarni, muloqotda kamtarlik, hurmat, samimiylik kabi fazilatlarni amaliy tarzda egallaydi Shu sababli o'yin faoliyatini milliy muloqot xulqini shakllantirishda metodik asos sifatida o'rganish dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalar nutqini shakllantirish jarayonida o'yin faoliyatining o'rni alohida o'rganiladigan ilmiy yo'nalishlardan biridir. O'yin – bolaning shaxs sifatida kamolga yetishida, milliy qadriyatlarga asoslangan muloqot xulqini egallashida, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirishida markaziy mexanizmga ega bo'lgan tabiiy faoliyat turidir. Muloqot xulqi bolaning jamiyatdagi o'rni, o'zini tutish me'yorlari, nutq madaniyati va ijtimoiy kompetensiyalarini belgilab beruvchi muhim psixologik ko'rsatkich hisoblanadi. Aynan o'yin jarayonida bola milliy mentalitetga xos muomala shakllarini kattalarga hurmat, tengdoshlar bilan do'stona muloqot, o'zini erkin ifoda etish, ovoz ohangini to'g'ri tanlash, muloqotda navbat kutish, tinglay bilish kabi fazilatlarni amaliy mashq orqali o'zlashtiradi.

Pedagogik va psixologik manbalarda o'yin faoliyati bolalarning ijtimoiylashuvi, kommunikativ malakalari va muloqot madaniyati shakllanishida yetakchi omil sifatida ko'rsatiladi. Q.Shodiyeva maktabgacha yoshda o'yin orqali muloqotning tabiiy

shakllanishini ko'rsatib, o'yin muloqotning mazmuni, motivi va vositasi ekanini asoslaydi [3; 115-b.].

D.Babayeva o'yin davomida bolalarda ijtimoiy rollar, taqlid, emotsional hamdardlik, o'zaro hurmat kabi fazilatlar rivojlanishini ta'kidlaydi [4;80-b.].

Milliy muloqot xulqining shakllanishida milliy qadriyatlarga asoslangan o'yinlarning o'rni alohida qayd etiladi. G.Nazarova fikricha, o'zbek milliy madaniyatiga xos o'yinlar bolalarda milliy identitet, jamiyatdagi o'z o'rnini anglash, o'zaro hamjihatlik hissini kuchaytiradi [5;59-b.].

Q.Qosimova, D.Abdurahmonova, Sh.Rashidova, X.Qurbonova tadqiqotlarida o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvning asosiy omili sifatida qaraladi. Qosimovanning fikricha, bola o'yin jarayonida muloqotning madaniy shakllarini amaliy o'zlashtiradi, milliy qadriyatlar esa o'yin mazmuni orqali bolaga singadi [5;57-b.].

Shuningdek, milliy o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq qilgan olim M.Yo'ldosheva o'yin jarayonida bola nutqining emotsional-ifadaviy jihatlari kuchayishini qayd etadi [4;74-b.]. Tursunov esa milliy o'yinlarda muloqot etiketi, salomlashish, murojaat qilish, navbat kutish kabi ijtimoiy me'yorlar tabiiy ravishda o'zlashtirilishini ta'kidlaydi [4;58-b.].

Vigotskiy, Elkonin, Leontev kabi psixologlar o'yin faoliyati shaxsning yuqori psixik funksiyalarini shakllantiruvchi vosita ekanini ilmiy asoslab bergan. D.B.Elkonin o'yinda bola "ijtimoiy tajribani modellastiradi", ya'ni kattalar dunyosidagi muloqot me'yorlarini o'yin orqali amalda sinab ko'radi [6;70-b.].

Rus psixologik maktabida o'yin bolaning nutqiy rivojida, xulq-atvorni boshqarish, emotsional barqarorlik, ijtimoiy qoidalarni egallashda fundamental vosita sifatida qaraladi. O'yin umumiy tarbiyaviy vazifalarni hal etishga mo'ljallangan. Ular orasida bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirish vazifalari ustuvor hisoblanadi. Bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida o'yin kundalik hayotda va umuman pedagogik jarayonda o'ziga xos o'ringa ega. Pedagog bolalarning qiziqishini uyg'otish, faolligini oshirish, ijobiy hissiyotlarini rivojlantirish uchun qanday kundalik jarayonlarni o'yin shaklida qo'llash mumkinligi haqida o'ylab ko'rishi kerak. Bolalar hayotining shakli sifatida o'yinning muhim ahamiyati uning har xil faoliyat turlariga singishidir (mehnat, kundalik jarayonlar). Chunki, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlari boshqa biron-bir faoliyat turi bilan uyg'unlikda bog'liq bo'lsa, ortib boradi. O'yinni mehnat, ko'rgazmali va konstruktiv faoliyat bilan bog'lash maqsadga muvofiq. O'yin davomida milliy mentalitetga xos o'yinchoqlar yasash, atributlarni milliy ko'rinishda kreativ yondashgan holda boshqacha bezashga ehtiyoj paydo bo'ladi, kattalar yordamida bolalar shikastlangan o'yinchoqlarni tuzatishlari esa bolalarga xos rahmdillik va ehtiyotkorlik hissini shakllantiradi [1; 21-b.].

O'yin jarayonida bola o'zini turli rollarda sinab ko'radi. Milliy ertak va rivoyatlardagi qahramonlar obrazini gavdalantirish orqali u odob-axloq me'yorlarini amaliy o'rganadi. Bola rollar o'zgarganda: boshqalarni tinglash, o'z fikrini muloyim ifoda etish, vaziyatga mos jahl va mimikani qo'llash kabi ko'nikmalarni egallaydi. Bu esa milliy muloqotga xos xushmuomalalik, kamtarlik, hurmat kabi sifatlarni mustahkamlaydi. Shu bois o'yin metodikasidan foydalanish milliy muloqot xulqini shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy muloqot xulqini shakllantirish jarayonida o'yin faoliyatidan foydalanishning metodik asoslarini aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Kuzatuv metodi. Bolalarning erkin o'yin faoliyatida bir-biri bilan muloqoti, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, o'zaro munosabati, navbat kutish, yordam so'rash, rollarni bajarish sifati tizimli o'rganiladi.

Suhbat va diagnostika. Bolalar, tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbat orqali bolalarning muloqot madaniyati darajasi, muammoli vaziyatda o'zini tutish malakasi baholanadi, milliy qadriyatlarining o'yin orqali berilishi bo'yicha suhbatlar o'tkaziladi

Eksperimental o'yin mashg'ulotlari. Milliy o'yinlar ("Chillak", "Arqon tortish", "Topib kel", "Qaychi-tosh"), rolli o'yinlar ("Do'konchi", "Mehmon kutish", "Shifokor"), ijtimoiy-syujetli o'yinlar tashkil etiladi.

Bolalarning o'yin jarayonida aytgan nutqlari, rolli o'yin ssenariylari, dramatik sahnalashtirishlar yozib olinib, kontent tahlili qilinadi va quyidagi baholash mezonlari asosida natijalar o'rganiladi.

- o'z fikrini madaniy ifodalash;
- navbat kutish malakasi;
- o'yin davomida boshqalar bilan kelishish;
- ijtimoiy rollarni bajarish;
- hurmat va muloyimlik normasi;
- konflikt vaziyatida xulqni boshqarish.

Bolalarga xos o'yin faoliyati milliy muloqot xulqini shakllantirishda fundamental pedagogik vosita hisoblanadi. O'yinlar orqali bola: milliy odob me'yorlarini, nutqiy etikani, ijtimoiy rollarni, tilning milliy ohangi va mazmunini, muloqotda kamtarlik, hurmat, samimiylilik kabi fazilatlarni amaliy tarzda egallaydi. Bolalarga xos o'yin faoliyati milliy muloqot xulqining shakllanishida fundamental omil bo'lib, u madaniy qadriyatlar bilan boyitilgan nutqiy tajribani egallash uchun eng tabiiy va samarali pedagogik muhitni vujudga keltiradi. O'yin orqali bola faqat tilni emas, balki o'z milliy muomala mezonlarini, ijtimoiy ro'llarni va madaniy xulq me'yorlarini chuqur o'zlashtiradi. Shu sababli o'yin – milliy muloqot xulqini shakllantirishning asosiy psixopedagogik vositalaridan biri sifatida baholanadi.

O'yin jarayoni milliy kommunikativ madaniyatni shakllantirishning eng tabiiy, samarali va psixologik asoslangan usullaridan biridir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'yin faoliyati milliy muloqot xulqini shakllantirishda bevosita ta'sirga ega. O'yin davomida bolalar quyidagi ijtimoiy-me'yoriy ko'nikmalarni egalladi:

Muloqot madaniyati rivojlanadi. Rolli o'yinlar jarayonida bolalar salomlashish, minnatdorlik bildirish, uzr so'rash, tanbeh berish, murojaat qilish, xayrlashish kabi milliy madaniyatga xos nutqiy formulalar etiketidan erkin foydalanib, amalda qo'llay boshladi. Bu holat Shodiyeva nazariyasidagi "muloqotning o'yin orqali tabiiy shakllanishi" tamoyiliga mos keladi [3, 118-b.].

Ijtimoiy rollarni bajarish malakasi oshadi. O'yin davomida bola "kattalar ijtimoiy hayoti"ni modellashtirar ekan, jamiyatdagi munosabat normalarini egallay boshlaydi. "Mehmon kutish" rolli o'yinida bolalarda mehmondo'stlik, odob bilan muloqot qilish, kattalarga hurmat, dasturxon atrofida muloqot madaniyati shakllanadi.

"Bozorda savdolashish" o'yinida muomala etiketi, murosaga kelish, narx aytish, hurmat bilan gapirish amalda namoyon bo'ladi. Elkonin ta'riflagan bu mexanizm bu jarayoda to'liq ifodalanadi [6, 67-b.].

Hurmat, sabr va hamkorlik ko'nikmalari mustahkamlanadi. Milliy o'yinlarda navbat kutish, jamoaviy harakat, qoidalarga bo'ysunish, tartibga rioya qilish, hurmat bildirish, kattalar bilan muloyim gaplashish kabi. xulq me'yorlari shakllanadi. Bolalar bir-birini qo'llab-quvvatlashni, o'yin qoidalariga rioya qilishni o'rgandilar.

Konflikt vaziyatlarini boshqarish yaxshilanadi. O'yin vaqtida kichik kelishmovchiliklar uchraganda bolalar muloyimlik bilan muammoni hal etish, tortishuvsiz kelishish, qo'pol so'zlardan qochish kabi ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni qo'llay oladilar.

Milliy qadriyatlarga ijobiy munosabat shakllanadi. Milliy o'yinlar o'zbek xalqining qadimiy tarbiyaviy tajribasini aks ettiradi. Ularda odob-axloq, hamkorlik, samimiyat, birodarlik, kattalarga hurmat, jamoaviylik kabi fazilatlar mujassam. Bola o'yinda ayni shu qadriyatlarga xos nutqiy normalarni o'rganadi.

Milliy o'yinlar orqali bolalar xalq an'analarini, o'zbekona muloqot madaniyatini ichki ehtiyoj sifatida egallay boshlaydi. Bu jarayon Nazarova fikrlarida asoslangan [5, 57–59-b.].

Milliy muloqot xulqi maktabgacha yoshda shakllanadi va uning poydevori o'yin faoliyatida qo'yiladi. O'yin jarayonida bola muloqotning milliy-me'yoriy shakllarini – salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik, hurmat – amaliy o'zlashtiradi. Milliy o'yinlar bolaning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiruvchi eng samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, tarbiyachi o'yin jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etsa, muloqot xulqi barqaror shakllanadi.

XULOSA

Bolalar nutqini shakllantirish jarayonida o'yin faoliyatining o'rni alohida o'rganiladigan ilmiy yo'nalishlardan biridir. O'yin bolaning shaxs sifatida kamolga yetishida, milliy qadriyatlarga asoslangan muloqot xulqini egallashida, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirishida markaziy mexanizmga ega bo'lgan tabiiy faoliyat turidir. Muloqot xulqi bolaning jamiyatdagi o'rni, o'zini tutish me'yorlari, nutq madaniyati va ijtimoiy kompetensiyalarini belgilab beruvchi muhim psixologik ko'rsatkich hisoblanadi. Aynan o'yin jarayonida bola milliy mentalitetga xos muomala shakllarini — kattalarga hurmat, tengdoshlar bilan do'stona muloqot, o'zini erkin ifoda etish, ovoz ohangini to'g'ri tanlash, muloqotda navbat kutish, tinglay bilish kabi fazilatlarni amaliy mashq orqali o'zlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy muloqot xulqining shakllanishida o'yin faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yuqorida ta'kidlangan pedagog olimlarning fikrlar asoslab berdi. O'yin bolada milliy madaniyatga xos ijtimoiy me'yorlarni tabiiy ravishda singdiradi, muloqot madaniyatini, hurmat, hamjihatlik, sabr-toqat, ijtimoiy rollarni bajarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Milliy qadriyatlarga asoslangan o'yinlar bolaning ijtimoiy identitetini mustahkamlaydi.

Takliflar sifatida quyidagilarni keltirish lozim;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy o'yinlar asosida muloqotni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

– o'yin turlariga qarab muloqot xulqining indikatorlari bo'yicha baholash mezonlari yaratilishi zarur.

– tarbiyachilar uchun “milliy muloqot etiketi” bo'yicha metodik qo'llanmalar tayyorlanishi kerak.

– ota-onalar uchun uy sharoitida milliy o'yinlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

Milliy o'yinlarni zamonaviy interfaol texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali samarali natijalarga erishiladi.

O'zbek xalqining muloqot madaniyatiga xos fazilatlar odob, shirinso'zlik, hurmat, muloyimlik, e'tibor, insof bolaga tarbiya vositasida singdirilsa, u har qanday ijtimoiy vaziyatda o'zini tutishni biladi. Tarbiyachining vazifasi ana shu fazilatlarni kundalik muloqot jarayonida ongli tarzda qo'llash, bolaga tushunarli misollar orqali ko'rsatish, nutqiy vaziyatlar yaratishdan iboratdir. Maktabgacha ta'limda milliy muloqot xulqining o'rni nihoyatda beqiyosdir. Bu xulq bolada nutqiy madaniyat, axloqiy ong, ma'naviy tafakkur,

ijtimoiy faoliyatning dastlabki shakllarini barpo qiladi. O'zbek pedagog olimlarining fikrlarida milliy muloqot xulqi shaxs kamolotining asosiy tayanchi sifatida baholanadi. Aynan maktabgacha yosh tarbiyaning eng samarali davri bo'lib, milliy xulq me'yorlarini singdirishning tabiiy bosqichidir.

Milliy muloqot xulqini shakllantirishda tarbiyachi shaxsiy namuna, milliy qadriyatlar, og'zaki ijod, nutqiy mashg'ulotlar, milliy o'yinlar, ota-onalar bilan hamkorlik orqali keng ko'lamli pedagogik jarayonni tashkil etadi. Mazkur jarayon to'g'ri yo'lga qo'yilganda bolalarda milliy g'urur, muloyim muomala, madaniyatli fikr bildirish, hurmat va ehtiyotkorlik kabi fazilatlar rivojlanadi. Natijada maktabgacha ta'lim tizimi o'z oldiga qo'ygan bosh maqsad ma'naviy barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashuvchi, ozodaligi, madaniyati va go'zal muomalasiga ega avlodni tarbiyalash vazifasini samarali bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.Grosheva, M.Ismailova O'yin orqali ta'lim olish. Metodik qo'llanma. Toshkent: –2020.
2. L.S.Vigotskiy Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: –1996.
3. Q.Shodiyeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. Toshkent: –2015.
4. D.R.Babayeva Maktabgacha ta'lim metodikasi. Darslik. Toshkent: –2016.
5. G.Nazarova "Milliy qadriyatlar asosida muloqot madaniyatini rivojlantirish". Pedagogika jurnali, №4, –2020.
6. Д.Б.Элкониин "Психология игри". Москва: –1978.